

## SURXON VOHASI AHOLISINING AN'ANAVIY KIIYIMLARI VA TAQINCHOQLARI

Rahmonov Maxammad Habibullo o'g'li

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi.

+99891-582-25-25 [Muhammad19940208@mail.ru](mailto:Muhammad19940208@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14589151>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxon vohasi aholisining an'anaviy kiyimlari va kiyim bezaklari, taqinchoqlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qolaversa, aholining mato tayyorlash va rang berish usullari haqida faktlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Sina, Boysun, Denov, qasaba, beqasam, bo'z, janda, to'y, jelak, kebanak, cholbar, mo'kki, chakmon.

## ТРАДИЦИОННАЯ ОДЕЖДА И ЮВЕЛИРНОСТИ ЖИТЕЛЕЙ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА

**Аннотация.** В данной статье собрана информация о традиционной одежде, украшениях одежды и украшениях жителей Сурханского оазиса. Кроме того, имеются факты о способах подготовки тканей и окраски населения.

**Ключевые слова:** Сина, Бойсун, Денов, касаб, бекасам, боз, джанда, той, желак, кебанак, чалбар, мокки, чакмон.

## TRADITIONAL CLOTHES AND JEWELRY OF THE RESIDENTS OF THE SURKHAN OASIS

**Abstract.** This article provides information about the traditional clothing, clothing decorations, and jewelry of the residents of the Surkhan oasis. In addition, facts are provided about the methods of fabric production and dyeing of the residents.

**Key words:** Sina, Boysun, Denov, kasaba, bekasam, boz, janda, toy, jelak, kebanak, chalbar, mokki, chakmon.

O'zbek xalqining ananaviy kiyimlari moddiy madaniyatning bir qismini tashkil etib, o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, urf odatlari hamda estetik didini namoyon etgan. O'zbek xalqining ananaviy kiyimlari boshqa millat kiyimlaridan o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi.

Boshqa xalq kiyimlari singari o'zbek xalq ananaviy kiyimlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda urf-odat, marosim, ananalar tasirida davrlar o'tishi davomida o'ziga xos xususiyatda shakllanib, rivojlanib kelgan. Elshunos olim O.A.Suxareva ta'biri bilan aytganda: «Kiyimning yuzaga kelishi va turlarining ko'payishida kishilarning yashash tarzi, mehnati va iqlim sharoitidan tashqari ularning madaniy rivojlanishi, estetik didlarining o'sishi ham asosiy omillardandir».

Kiyimning asosiy vazifasi badanni har qanday havf-xatar, issiq, sovuqdan himoya qilishdir.

Shuningdek, insonlarni jismoniy va jinsiy ayirish hamda estetik bezak berish kabi vazifalarni bajargan.

Kiyimlar davrlar o'tishi bilan, ijtimoiy siyosiy rivojlanish jarayonida o'ziga xos tarzda rivojlanib boradi. Bu esa etnograf olimlardan kiyimlar tarixini o'rganish va uni yoritishda ma'suliyat talab etadi. Chunki xalqlarning etnik tarkibini o'rganishda hamda ilmiy asoslanishda kiyimlarning davrlar o'tishiga qaramasdan o'z milliyligini saqlab qolganligi o'ziga xos o'ringa

ega. Xususan, XVI asr miniatura san'atida tasvirlanlgan O'rta Osiyo xalqlari kiyimlarida o'tgan asr oxiri (ya'ni XIX asr oxiri)gacha tojik va o'zbek kiyimlariga o'xshashligi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek uzoq ijtimoiy-siyosiy, tarixiy davrlar o'tishi bilan kiyimlar o'zgargan bo'lsada biroq kiyimlardagi bichish va tikish uslublari o'ziga xos darajada o'zgarmagan.

Yana shuni ta'kidlash joyizki, kiyimlar tabiiy iqlim sharoitiga qarab turlicha bo'lgan.

Masalan, tog'li hudud bilan cho'l mintaqalarida ayrim tomonlari farq qilgan. An'anaviy xalq kiyimlari asrlar osha takomillashib, shakllanib kelgan.

Mato tayyorlash usullari O'zbekiston hududi, qolaversa Surxon vohasida asosan uy sharoitida tayyorlangan. Vaho aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan ko'proq mashg'ul bo'lganligi uchun matolar paxta va jundan, ma'lum miqdorda esa pilladan tayyorlangan. Denov markazi, Vaxshivor, Sangardak, Xonjiza, Sina, Sho'rchi, Qorliq kabi hududlarda teriga ishlov berib, bosh, ustki va oyoq kiyimlar hamda shu kabi boshqa kiyimlar ishlab chiqarish o'ziga xos tarzda rivojlangan.

Markaziy Osiyo xususan, O'zbekistonda uy sharoitida mato to'qish va uning texnologiyasi haqida A.D.Grebenkin, S.M.Mahkamova, R.G.Muqminova, O.A.Suxareva kabi elshunos olimlar tomonidan ko'pgina ilmiy ishlar yaratilgan. Paxta va jundan mato to'qishda vohaning tog'li hududlari bo'lgan Poshxurd, Zarobog', Bobotepa, Xitoy, Novbog', Darband, Sayrob, Gilambob, Tallimoron, Muzrobot, Jobi, Qorliq, Vaxshivor, Sangardak, Sina, Xonjiza kabi qishloqlari hamda Denov, Yurchi, Qorluq, Mirshodi, Sariosiyoda ancha taraqqiy etgan. Chunki bu jarayon Surxon vohasining hamma hududida bir xil tartibda emas edi. Surxon vohasining Denov, Yurchi hamda Sariosiyo bozorlari tumanlar o'rtasida katta ahamiyatga ega bo'lib, dehqonlar va chorvadorlar iste'moldan ortiqcha bo'lgan bir qator mahsulotlari kabi paxta, jun hamda mol terilarini bozorlarda sotganlar. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tog'li hudud aholisi paxtani asosan shu bozorlarda xarid qilganlar. Sariosiyo va Uzun tumanlari hududida joylashgan Debodom, Desurx, Xo'jaasmin, Chosh, Pastikalon, Por, Pushtivaraq, Xufar, Xur Vatan, Maland, Kishtut kabi tog' qishloq aholisi tog' orqali yo'l bilan Shaxrisabz va Samarqand bozorlaridan kiyim-kechak hamda boshqa mahsulotlarni harid qilganlar.

Ilmiy tadqiqotlarda matolar va kiyimlar tayyorlash bo'yicha quyidagi manbalarni tahlili qayd etildi. **Tabiiy rang olish tartibi** — tabiiy ranglar asosan tabiatda sof xolda o'sadigan ayrim o't-o'lanlarning tomir va ildizlaridan, meva-sabzavotlar, daraxtlar barglaridan, po'choq hamda po'stloqlaridan olingan. Chunki bu usulda olingan ranglar asrlar osha bo'lsa-da, o'z tabiiy xususiyatlarini yo'qotmaydi. Rang tayyorlash yoki iplarni bo'yash unchalik murakkab bo'lmagan, lekin qunt va xiylagina ko'p vaqtni qamrab oladigan jarayon xisoblanadi. Masalan, tabiiy rangli ip tayyorlash uchun kalava iplar mis qozonga solinib, bir kecha davomida saqlanib, ivitiladi. Bir kundan so'ng iplar olinib, siqiladi.

**Janda-** o'ziga xos bo'yoqlar jilosi – navbatma-navbat to'qilgan to'q-sariq, to'q-qizil va oq-qora yo'llardan iborat. Ular xuddi Surxon vohasida tabiatiga xos bo'yoqlarni, uning o'rmonsiz tog' yonbag'rini, qo'yosh orqali kuydirilgan qoyali yerni, chuqur do'vallar va jarlik soyasini o'zgacha tasvirlaydi. Boysun tumanidagi Sariosiyo qishlog'ida yashovchi usta Musulmon Qahhorov tomonidan to'qilib kelayotgan qadimiy janda matosining rangi – to'q sariq, to'q qizil va oq-qora chiziqlarning navbatma-navbat tasvirlanishi bilan bog'liq bo'lib, usta o'zi yashaydigan Sariosiyo qishlog'i tabiatining ranglarini, uning o'rmonsiz tog' yon bag'irlarini, oftobda kuygan

toshloq yerlarini, dovol va jarliklarning chuqur soyalarini o'zida mujassamlashtirgan janda matosini to'qigan. Usta tayyorlagan chopon (to'n) da ingichka yashil – mahalliy tabiatni ifodalovchi yana bir belgi – tog'lar o'simliklarga xasis-tasma ifodasi tushirilib, Sariosiyodan bir necha kilometr uzoqlikda xushmanzara, gullagan vodiylar dunyosi matolarda o'z aksini topgan.

Sariosiyoda ustaning avlodlari mato to'qish bilan shug'ullanib, uni bu hunarga o'rgatgan onasi, nasliy to'qimachi Narzi Qahhorova bo'lib, ustaning onasi dastgohda atlas va alachani to'qigan.

**Bo'z**-qadimiy mato bo'lib, ko'proq erkaklar uchun kiyim-kechak tikilgan. Ilgari ayollar kiyimi uchun ishlatiladigan mato-olachadir. Olachaning qizil, xavorang, yashil kabi turlari mavjud bo'lib ola ya'ni yo'llari mayda va tor bo'lgan.

**Beqasam** - yo'l-yo'l mato bo'lib, to'qishda orqog'i urishidan yo'g'onligi uchun yuzida ko'ndalang chiviqalar hamda o'ziga xos tovlanma naqshlar mavjud. Beqasamning o'rish iplari to'qishdan oldin, bo'yaganligi bois uning naqshi ikki tomonlama, xilma-xil va turli-tumandir.

Beqasamdan tuman aholisi chopon, kamzul hamda ko'rpachalar tikishda foydalanganlar.

**Paranji** - (arabcha-faraji-keng ko'ylak) ko'pchilik musulmon ayollarining yopinchig'i, chachvon bilan ansambl' xosil qilgan. Ayollar gavdasini boshidan oyoq yashirib turishga xizmat qiladi. Bichimi keng to'n shaklida bo'lib, yelkadan pastga tomon torayib boruvchi uzun bandagi (engi) etakka yaqin joyda bir-biriga chatib birlashtiriladi. Ayol yuzini chachvon to'sib turadi.

Avra-astrali qilib tikiladi. Avrasi baxmal kimxob, banoras, olacha va boshqa matolardan tikilib, chetlari kashta tikib, kashtali jiyaklar tutib bezatiladi. Astari chit, satindan tayyorlanadi, hamda chetlariga zangori, pushti yoki sidirg'a shoyidan adip qilinadi. Paranjini ikki yoni (cho'ntak urni)ga tik tushgan (25 sm uzunlikda) 2 ta jiyak tutashtirib chatiladi, jiyaklar uchidan popukchalar chiqarilgan, ba'zan qo'ng'iroqchalar osilgan. Qadimgi Misrda paydo bo'lgan va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. XVI asrdan ayolni begona ko'zlardan yashiruvchi yopinchig'iga, uzun yenglari bezak qismiga aylangan. Paranji yopinish islom shariatiga mos kelgan. XX asrdagi ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida (ayniqsa 1930 yillardan boshlangan «Hujum» harakati va boshqa tufayli) paranji deyarli urfdan qolgan.

## REFERENCES

1. Головик. Кустарное промышленность Туркестана // Туркестанский сборник. Т. 512. – С. 31 – 32.
2. Tursunov S. va boshqa. O'zbekiston tarixi va madaniyati- Surxondaryo etnografiyasi. – B. 94.
3. Tursunov S. Boysun Akadem nashr. – B. 101.
4. Tursunov S, Pardayev T. Surxondaryo – etnografik makon. “Akademnashr” 2012 yil
5. Qobilov E Surxon vohasi xo'jaligi - Toshkent “Akademknashr”. 2012. 259- bet.
6. Dala yozuvi Boysun tumani Avlod, Panjob, Sariosiyo va Alachopon qishloqlari 2021-2023 yillar
7. Rahmonov, M. (2024). TOQCHI QAVMI AHOLISINING HUNARMANDCHILIGI VA UY-RO 'ZG 'OR KASBKORLIGI. *Modern Science and Research*, 3(5).

8. Rahmonov, M. (2023). SURXON VAHASI TOKCHI XALQINING AN'anaviy turmush TARZI. *Zamonaviy fan va tadqiqotlar* , 2 (4), 720-722.
9. Rahmonov, M. (2024). SURXON VOHASI BOYSUN TUMANI PANJOB QISHLOG 'I AHOLISINING NOMODDIY MADANIYATIDAN. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 6(57), 78-81.
10. Rahmonov, M. (2024). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMI AHOLISIORASIDA XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATI RIVOJLANISHI. *Modern Science and Research*, 3(7).
11. Erkin o'g'li, J. M. (2023). TOPONOMIKANING ASOSIY BO'LIMLARI VA ULARNING TARIX UCHUN AHAMIYATI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 9(2), 121-125.
12. Jumayev, M. (2023). TARIXIY NOMLARNING MANBALARI VA TA'LIQNING ILMIY ASOSLARI. *Zamonaviy fan va tadqiqotlar* , 2 (10), 568-576.
13. Xabibullo o'g'li, M. R. (2024). THE FAMOUS CHOPOGAN OF TAKCHI RESIDENTS OF ALACHOPON. *Journal of Learning on History and Social Sciences*, 1(5), 42-44.